# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
# BUYRUG‘I

**2023 - yil «27» iyun 286-son** **Toshkent shahri**

**Vazirlik xodimlarining Ichki mehnat tartibi qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik) xodimlarining o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida boshqa xodimlar hisobidan moddiy naf ko‘rishini oldini olish choralarini amalga oshirish maqsadida

**B U Y U R A M A N:**

1. Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 02-iyundagi 242-son buyrug‘i 8-bandiga asosan vazirlik xodimlarining Ichki mehnat tartibi qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish belgilanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 31-maydagi 235-son buyrug‘i 4-ilovasi bilan tasdiqlangan vazirlik xodimlarining Ichki mehnat tartibi qoidalari 2.7-bandi:

quyidagi mazmundagi yigirma birinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“ vazirlik xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida boshqa shaxslar hisobidan har qanday moddiy naf ko‘rishi, jumladan transport, mehmonxona, ovqatlanish xarajatlarni to‘latish, mukofot va sovg‘alar olish hamda boshqacha tarzda moddiy manfaatdor bo‘lishi”;

yigirma birinchi xatboshi yigirma ikkinchi xatboshi deb hisoblansin.

3. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Vazir** **I.Abduraxmonov**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DEVONXONA

NUSXA
ASLIGA TO‘G‘RI